

**RASMLI MATNLAR ORQALI TANQIDIY VA TAHLILIIY FIKRLASHNI  
SHAKLLANTIRISHNING KOGNITIV MEXANIZMLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti metodikasi  
yo'nalishi, 1-bosqich magistranti  
Xudayberdiyeva Shahnoza*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada rasmlı matnlar asosida o'quvchılarda tanqıdiy va tahliliy fikrlashni shakllantirishning kognitiv mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Vizual va verbal axborotning o'zaro integratsiyasi, idrok, diqqat, xotira hamda semantik qayta ishlash jarayonlarining o'quvchi tafakkuriga ta'siri o'rganiladi. Rasmlı matnlar orqali ma'no yaratish, sabab-oqibat aloqalarini anglash va mustaqil xulosa chiqarish jarayonlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv mexanizmlar, rasmlı matnlar, tanqıdiy fikrlash, tahliliy fikrlash, idrok, diqqat, xotira.

**COGNITIVE MECHANISMS OF FORMING CRITICAL AND  
ANALYTICAL THINKING THROUGH ILLUSTRATED TEXTS****Abstract**

This article analyzes the cognitive mechanisms of forming critical and analytical thinking in students based on illustrated texts from a scientific, theoretical and practical perspective. The influence of the processes of mutual integration of visual and verbal information, perception, attention, memory and semantic processing on student thinking is studied. The processes of creating meaning, understanding cause-and-effect relationships and drawing independent conclusions through illustrated texts are analyzed.

**Keywords:** cognitive mechanisms, illustrated texts, critical thinking, analytical thinking, perception, attention, memory.

**КОГНИТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО  
И АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ  
ИЛЛЮСТРИРОВАННЫХ ТЕКСТОВ****Аннотация**

В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются когнитивные механизмы формирования критического и

аналитического мышления у учащихся на основе иллюстрированных текстов. Изучается влияние процессов взаимной интеграции визуальной и вербальной информации, восприятия, внимания, памяти и семантической обработки на мышление учащихся. Анализируются процессы создания смысла, понимания причинно-следственных связей и формулирования самостоятельных выводов на основе иллюстрированных текстов.

**Ключевые слова:** когнитивные механизмы, иллюстрированные тексты, критическое мышление, аналитическое мышление, восприятие, внимание, память.

### Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqatgina bilim olishi emas, balki ularni mustaqil tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborotlar oqimi keskin ortib borayotgan hozirgi davrda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalari shaxsning intellektual rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida rasmlar matnlardan foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan, inson axborotni qabul qilish jarayonida vizual stimullarni verbal axborotga nisbatan tezroq va samaraliroq qayta ishlaydi. Rasmlar matnlar esa aynan ushbu xususiyatga asoslanib, idrok, diqqat va xotira jarayonlarini faollashtiradi. Rasm va matn uyg'unligi o'quvchiga axborotni ko'p kanalli tarzda qabul qilish imkonini beradi, bu esa bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga olib keladi.

Tanqidiy fikrlash — bu o'quvchining axborotni shunchaki qabul qilmasdan, balki uni tahlil qilish, solishtirish, baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Rasmlar matnlar mazkur jarayonni kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi, chunki rasm o'quvchini savol berishga, taxmin qilishga va yashirin ma'nolarni izlashga undaydi. Natijada, o'quvchi faolligi ortib, passiv o'rganishdan faol bilish jarayoniga o'tiladi. Tahliliy fikrlash esa murakkab axborotni qismlarga ajratish, asosiy va ikkilamchi belgilarni farqlash hamda sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Rasmlar matnlar mazmunni strukturalashga yordam berib, o'quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Vizual obrazlar orqali tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash osonlashadi va kognitiv yuklama muvozanatlashadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida multimodal yondashuv keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvda rasmlar matnlar o'quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim berish imkonini yaratadi. Ayniqsa, vizual idroki ustun bo'lgan o'quvchilar uchun rasmlar materiallar bilimni o'zlashtirishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Tanqidiy fikrlash bevosita kognitiv faoliyat asosida amalga oshadi. O'quvchilardagi idrok, xotira, fikrlash va o'rganish faoliyatlari kognitiv jarayonlardir. Kognitiv so'zi lotincha "cognize" so'zidan olingan bo'lib, "bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq" yoki "cognition" – bilish, tushinish ma'nosini anglatadi. Kognitiv jarayon shaxsning bilish faoliyati, voqeliklarni sezish, anglash, mulohaza qilishi orqali amalga oshadi. Ta'limda kognitiv faoliyat o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy, ijodiy fikrlash qobiliyatini, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va kompetensiyalarga aylantirish, o'zini-o'zini rivojlantirish va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. O'quvchilarning tafakkuri va xotirasida bilimlarning saqlanishi, o'zlashtirilishi, tahrirlanishi kognitiv faoliyatni vujudga keltiradi. Bugungi kunda dunyo ta'limida kognitiv jarayon va shaxsning intellektual faoliyatiga xos bo'lgan barcha bilimlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ularning kognitiv bilish imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga mashg'ulotlarda muayyan muammo, tarixiy voqea, real xodisalar yuzasidan taqdim etiladigan savollar oddiydan murakkablashib boradi. O'quvchilar oddiy savollarda nisbatan kamroq faollikni egallasalar, murakkab savollarda o'z-o'zidan diqqatni jamlash, xotirani tiklash, o'zining ijodiy qobiliyatidan foydalanish kabi psixologik jarayonlarga chuqurroq murojaat qiladilar. Taniqli mutaxassis Edvard Glaserning ilmiy tadqiqotlarida: "Tanqidiy tafakkur – mavjud faktlar, kuzatishlar va dalillarni oqilona, xolis tahlil va baholash" deya e'tirof etiladi. Respublikamiz ta'lim tizimida shaxs aqliy va ma'naviy rivojlanishi, fikrlash taraqqiyotining jadallashuviga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish, milliy qahramonlar faoliyatining ibratli tomonlarini o'quv-tarbiyaviy material sifatida o'quvchilarga taqdim qilish natijasida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyalari shakllantiriladi. Tanqidiy fikrlash avvalo masalaga yoki voqeaga nisbatan "savol" orqali yuzlanishdan boshlanadi. Chunki, tanqidiy fikrlash jarayoni savol berishdan boshlanib xulosalash bilan yakunlanadi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning dastlabki insayt va intuitiv ko'rinishi – ularda to'g'ri savol qo'yish va o'zi bergan savolga javobni ham o'zi izlay olish ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. INSAYT (ing. insight – ziyraklik, tushunish) – ob'ektiv dunyoning umumiy, jiddiy va zaruriy xususiyat va munosabatlarini ilg'ab olish. Insayt ob'yektni qism va bo'laklar orqali idrok etishdan farqli ravishda uni butunligicha fikran anglash deb tushuniladi. Insayt mantiq yordamida yoki diskursiv tarzda shakllanmagan tasavvur sifatida ongda, hatto tushda to'satdan paydo bo'ladi. Insayt intuitsiya lahzasi, ong va ongsizlikning o'zaro ta'siri

mahsulidir. Insaytning tahliliy, sintetik (umumlashtiruvchi) va aralash ko‘rinishlari mavjud. Shu jihatdan ham insayt jarayoni o‘quvchilarda kognitiv bilish natijasida amalga oshadi va tanqidiy fikrlashni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarni ma‘nan yuksaltirish jarayonida o‘zini va boshqalarning faoliyatini, hattiharakatlarini tanqidiy fikrlash asosida tahlil qilaolishlarida o‘zbek xalqi qahramonlari faoliyatini o‘rganish muhim didaktik vositalardan hisoblanadi. Chunki Vatanining ozodligi, xalqining tinchligi, kelajak avlodning istiqboli uchun qayg‘urgan, bor kuchini sarflagan, o‘z jonini ham ayamagan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Bibixonim, Gavharshodbegim, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud, jadid ma‘rifatparvarlari, Zulfiyaxonim kabi xalq qahramonlarining faoliyati yosh avlod uchun eng ulug‘ qadriyat va ibrat maktabi bo‘la oladi.

Kognitiv psixologiya va ta‘lim psixologiyasi tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg‘unligidan foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida ilmiy adabiyotlar tahlili, solishtirish va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Ushbu bosqichda rasmlı matnlar, tanqidiy fikrlash va kognitiv mexanizmlar bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Empirik tadqiqot metodlari sifatida kuzatuv, pedagogik tajriba va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Tadqiqotda o‘quvchilarga rasmlı va oddiy matnlar asosida topshiriqlar berilib, ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash darajalari solishtirildi. Topshiriqlar o‘quvchilarning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammoli vaziyatlarga munosabat bildirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini aniqlashga qaratildi.

O‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini baholashda test va savolnomalardan foydalanildi. Ushbu vositalar orqali diqqatni jamlash, vizual xotira va semantik tushunish darajalari o‘lchandi. Tadqiqot natijalari statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, rasmlı matnlarning kognitiv samaradorligi baholandi.

Metodologik yondashuvda multimodal o‘rganish nazariyasiga alohida e‘tibor qaratildi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, axborotni bir vaqtning o‘zida vizual va verbal kanallar orqali qabul qilish bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Rasmlı matnlar asosida ishlagan o‘quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash darajasi an‘anaviy matnlar bilan ishlagan o‘quvchilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarida ijobiy o‘sish kuzatildi.

Rasmlı matnlar o‘quvchilarning diqqatini uzoqroq vaqt davomida saqlab turishga yordam berdi. Vizual stimullar tufayli axborotning muhim jihatlari tezroq ajratib olindi va semantik tushunish chuqurlashdi. Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar rasm asosida matn mazmunini qayta talqin qilishda faolroq ishtirok etdi. Tahlillar rasmlı matnlar xotirada saqlanish darajasini oshirishini ko‘rsatdi. Vizual obrazlar orqali olingan axborot uzoq muddatli xotirada mustahkamroq joylashdi. Bu holat o‘quvchilarning bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini kuchaytirdi.

Olingan natijalar kognitiv psixologiyadagi multimodal o'rganish nazariyasini tasdiqlaydi. Rasmi matnlar orqali axborotning vizual va verbal integratsiyasi o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, rasmi materiallar tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Rasmi matnlar o'quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol tahlilchiga aylantiradi. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, rasmi matnlar orqali tanqidiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish samarali kognitiv mexanizmlarga asoslanadi. Vizual va verbal axborotning uyg'unligi o'quvchilarning idrok, diqqat va xotira jarayonlarini faollashtiradi. Tadqiqot natijalari rasmi matnlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ta'lim amaliyotida rasmi materiallardan maqsadli foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-134-sonli Farmoni.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b 3. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 400 b.
4. . Paul R. Critical thinking: what every person needs to survive in a Rapidly Changing World/ Sonoma State Uni. 1990
5. Shakirova D.M "Formirovanie kriticheskogo myshleniya u uchashxysya i studentov: model i texnologiya". Educational Technology Society 9(4)2006/ ISSN 1436-4522/ 2006